

**OMMAVIY AXBOROT VOSITALARI O'ZBEKISTON MEDIA
DIPLOMATIYASINI TARG'IB QILISH VOSITASI SIFATIDA**

M.Amonqulova

Demokratik jamiyat barpo etishda ommaviy axborot vositalari hal qiluvchi o'rin tutadi, nafaqat muayyan mamlakatlar, balki global miqyosda siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy jarayonlarga jiddiy ta'sir ko'rsatadi.

Ommaviy axborot vositalari jamoatchilik fikrini shakllantirishning eng muhim omillaridan biri hisoblanadi. Ilg'or axborot-kommunikatsiya texnologiyalari ularning rivojlanishiga xizmat qilmoqda, chunki texnologiya yordamida axborot olish imkoniyati tobora kengaymoqda. Ayni paytda, globallashuv sharoitida turli mamlakatlarning tarixiy-madaniy hususiyatlari va rivojlanishdagi o'ziga xosliklarini saqlab qolish maqsadida axborot xavfsizligini ta'minlashning ahamiyati ortib bormoqda.

“Jonajon O'zbekistonimiz o'z taraqqiyotining yangi va muhim bosqichiga qadam qo'yayotgan hozirgi davrda media sohasi vakillari – jurnalist va muharrirlar, rejissyor va operatorlar, blogerlar, tele-radio kanallar, gazeta va jurnallar, nashriyot va bosmaxona xodimlari vatanimizning demokratik qiyofasini shakllantirish, uni dunyoga tarannum etishga beqiyos hissa qo'shib kelayotganini el-yurtimiz yaxshi biladi va yuksak qadrlaydi”¹, – deya ta'kidladi davlat rahbari.

Prezident mamlakatda ommaviy axborot vositalari soni 2016 yilga nisbatan qariyb 30 foizga ortib, 1962 taga yetganini ta'kidlab, ayniqsa, xususiy media vositalari jamiyatda fikrlar xilma-xilligini ta'minlashda, tub islohotlarni amalga oshirishda, joylarda yo'l qo'yilayotgan kamchilik va muammolarni dadil ko'tarib chiqishda muhim omil bo'layotganini e'tirof etdi. Shuningdek, milliy axborot makonida internet nashrlarining soni so'nggi 6 yilda salkam ikki barobar ko'payib, 677 taga yetgani alohida qayd etildi.

“Natijada davlat va nodavlat tashkilotlarining axborot manbalari yanada ortib, aholi bilan to'g'ridan-to'g'ri muloqot qilish, odamlarni o'ylantirayotgan muammolarga

¹ Qarang: <https://president.uz/uz/lists/view/5294/> Ўзбекистон Республикаси Президенти Матбуот ва оммавий ахборот воситалари ходимларига байрам табриги: Хурматли оммавий ахборот воситалари ходимлари!

tezkor munosabat bildirish, turli mavzular bo'yicha ochiq, xolis va tanqidiy fikr bilan chiqishda katta imkoniyatlar paydo bo'lmoqda", – dedi davlat rahbari.

Shavkat Mirziyoev O'zbekiston media kompaniyalari ham jahon axborot maydonida munosib o'rin egallab, global siyosiy-ijtimoiy jarayonlarda faol ishtirok etishga intilayotgani, buning uchun tinimsiz mehnat qilish, ilg'or xorijiy tajribalar, zamonaviy axborot texnologiyalari, serqirra tahlil usullarini o'zlashtirib, doimo izlanib yashash, milliy jurnalistikaning yangi avlodini tarbiyalash zarurligini qayd etdi.

Prezident fuqarolar uchun axborot sohasida qulay imkoniyatlar yaratish, davlat hokimiyati va boshqaruv organlari faoliyati ustidan jamoatchilik nazoratini amalga oshirishda ommaviy axborot vositalarining roli va ta'sirini kuchaytirish – yana bir ustuvor vazifa ekanligini aytib o'tdi. "Shuni qayd etish zarurki, sohaning moddiy-texnik bazasini yaxshilash, xodimlar mehnatini rag'batlantirishga bundan buyon ham doimiy e'tibor qaratamiz", – dedi u. Davlat rahbari OAVni qo'llab-quvvatlash va jurnalistika sohasini rivojlantirish bo'yicha kuni kecha qabul qilingan prezident qarorida OAVning qonuniy manfaatlarini himoya qilishni kuchaytirish, kadrlar salohiyati va raqobatbardoshligini yanada oshirish, ehtiyojmand va yosh jurnalistlarni uy-joy bilan ta'minlash bo'yicha zarur chora-tadbirlar amalga oshirish belgilanganini eslatib o'tdi. Shu bilan birga, keyingi paytlarda ijtimoiy tarmoqlar orqali ba'zi joylarda OAV xodimlariga mensimay qarash, ularning o'z vakolati doirasida erkin faoliyat yuritishiga to'sqinlik qilish holatlari uchrayotgani tilga olindi.

"Ommaviy axborot vositalari xodimlarining o'z faoliyatini qonun doirasida erkin amalga oshirishiga to'sqinlik qilish – bu demokratik islohotlarimizga qarshi harakat, mamlakatimizning obro'siga putur yetkazish sifatida baholanishi kerak. Sud va prokuratura organlari bizga mutlaqo yarashmaydigan bunday salbiy holatlar bo'yicha qat'iy choralar ko'rishi lozim", – deya ta'kidladi.

"Bir haqiqatni hech qachon esdan chiqarmasligimiz kerak: barchamiz demokratiya deb atalgan buyuk maktabning o'quvchilarimiz. Bu borada hali ko'p narsalarni o'rganishimiz zarur. Farzandlarimizni ayni shu ruhda tarbiyalashda jurnalistika sohasi vakillari, muhtaram faxriylarimiz o'zlarining boy tajribasi va ibratli fazilatlarini bilan alohida namuna ko'rsatadilar, deb ishonaman", – deya ta'kidladi prezident.

Mazkur g'oyaning mantiqiy davomi sifatida yillar davomida o'z yechimini kutayotgan ishlar bo'yicha konstruktiv rejalar ishlab chiqilmoqda. Xususan, Yangi

O'zbekiston taraqqiyot strategiyasining 98-maqjadi aynan ushbu yo'nalishga qaratilgan bo'lib, unda jahon hamjamiyatida respublikamiz imijini oshirishga qaratilgan axborotlar yetkazish samaradorligini oshirish masalasi muhim topshiriq sifatida ilgari surilgan.

Media diplomatiyasi tashqi siyosatning asosiy vositasiga aylandi va jurnalistlar diplomatik tadbirlar va jarayonlar bilan tez-tez va intensiv shug'ullanmoqdalar. Ba'zan ular hatto diplomatik jarayonlarni boshlashadi. OAV diplomatiyaga yordam berishi yoki to'sqinlik qilishi mumkin bo'lgan bir necha usullar mavjud. Ommaviy axborot vositalari mustaqil aktyor sifatida ham, siyosatchilar va jurnalistlar qo'lidagi vosita sifatida ham ishlaydi².

Media diplomatiyasi haqidagi bilimlar hali ham juda cheklangan va aloqa, xalqaro munosabatlar va diplomatik tadqiqotlar sohasidagi olimlarni ushbu mavzu bo'yicha ko'p tarmoqli tadqiqotlar o'tkazishga undash kerak.

Ommaviy axborot vositalarida yetakchilar o'rtasidagi muzokaralar va sammit uchrashuvlarini yoritish an'anaviy, asosan maxfiy, rasmiy, professional diplomatiyani o'zgartirdi. Yangi diplomatiya ommaviy kommunikatsiyalar, siyosat va xalqaro munosabatlardagi uchta o'zaro bog'liq inqilobiy o'zgarishlar tufayli zamonaviy xalqaro munosabatlarning asosiy tarkibiy qismiga aylandi. Birinchidan, kommunikatsiya texnologiyalaridagi inqilob Xalqaro, BBC World, Sky News va Al-Jazira kabi global yangiliklarni yaratdi, ular tez-tez jonli, jahonda ro'y berayotgan deyarli barcha muhim voqealarni dunyoning deyarli barcha joylariga translyatsiya qilish imkoniyatiga ega. Internet shuningdek, butun dunyodagi xalqlar, jamoalar va tashkilotlar o'rtasidagi aloqada inqilob qildi.

Ikkinchidan, siyosatdagi inqilob siyosiy jarayonlarda ommaviy ishtirok etishni kuchaytirdi va ko'plab jamiyatlarni avtokratiyadan demokratiyaga aylantirdi. Uchinchidan, xalqaro munosabatlardagi inqilob tashqi siyosatning maqsad va vositalarini o'zgartirdi. Dunyo bo'ylab jozibadorlik va ishontirish (yumshoq kuch)

² Gilboa, E. (2002). Media diplomacy in the Arab-Israeli conflict. In E. Gilboa (ed.), *Media and conflict: Framing issues, making policy, shaping opinions*. Ardsley, NY: Transnational, pp. 193-211.

orqali erishilgan ijobiy imidj va obro'-e'tibor harbiy va iqtisodiy choralar (qattiq kuch) natijasida olingan hudud, kirish va xom-ashyodan ko'ra muhimroq bo'ldi.

Ommaviy axborot vositalari diplomatiyasini aniqlash va tushuntirishga qaratilgan birinchi ilmiy urinishlar noaniq va chalkash edi. Karl media diplomatiyani ochiq diplomatiyaga – diplomatiyaning ommaviy axborot vositalari va jamoatchilik fikriga shunchaki ta'sir qilishiga – yoki xalq diplomatiyasiga – “Amerika Ovozi” kabi ommaviy axborot vositalaridan xorijiy jamiyatdagi jamoatchilik fikriga ta'sir ko'rsatish bilan tenglashtirgan³.

Ramaprasad va Ebolarning fikricha media diplomatiyasi diplomatiya va tashqi siyosatda ommaviy axborot vositalarining rolini muhimligini ifodalaydi⁴. Van Dinh “televideniye diplomatiyasini tashviqot bilan tenglashtirdi, biroq u Jon F.Kennedi 1962 yil Kuba raketa inqirozi paytida SSSRga yuborilgan televideniye ultimatumini, Richard Niksonning 1972 yilgi Xitoyga tashrifi va 1977 yilda Misr Prezidenti Anvar Sadatning Quddusga tashrifi kabi hollarda inqirozlarni oldini olish va mojaroni hal qilishga yordam berish uchun mo'ljallangan bo'lib, tashviqot emas edi.

Biroq shuni unutmasligimiz kerakki, hozir mavjud imkoniyatlar sharoitida milliy axborot vositalarimiz, shu jumladan tashqi axborot-kommunikatsiya vositalarimiz xalqaro media monopoliyalarga raqobatchi kuchga aylanish darajasida emas. Shu bois ham xalqimiz, mamlakatimiz, davlatimiz va albatta davlatimiz rahbari sha'niga qarata tarqatiladigan axborotlarning nechog'li xolis ekanligiga hushyor bo'lmog'imiz, zarur vaqtlarda esa mamlakatimizda xorijiy axborotlarga ma'rifatli axborotlar bilan javob qaytarish tizimi yo'lga qo'yilmog'i kerak bo'ladi.

³ Gilboa, E. *Media and conflict: Framing issues, making policy, shaping opinions*. Ardsley, NY: Transnational, pp. 193–211.

⁴ Gilboa, E. (2002). Media diplomacy in the Arab–Israeli conflict. In E. Gilboa (ed.), *Media and conflict: Framing issues, making policy, shaping opinions*. Ardsley, NY: Transnational, pp. 193–211.